

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

SAPARBAYEV AZIZ ADAMOVICH

**FULLERENSIZ POLIMER AKSEPTORLAR ASOSIDAGI QUYOSH
ELEMENTLARNING OPTIK SPEKTROSKOPIYASI**

01.04.05 – Optika

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Saparbayev Aziz Adamovich

Fullerensiz polimer akseptorlar asosidagi quyosh elementlarning optik
spektroskopiya.....5

Сапарбаев Азиз Адамович

Оптическая спектроскопия солнечных элементов на основе бесфуллереновых
полимерных акцепторов.....29

Saparbayev Aziz Adamovich

Optical spectroscopy of solar cells based on nonfullerene polymer
acceptors.....55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

SAPARBAYEV AZIZ ADAMOVICH

**FULLERENSIZ POLIMER AKSEPTORLAR ASOSIDAGI QUYOSH
ELEMENTLARNING OPTIK SPEKTROSKOPIYASI**

01.04.05 – Optika

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/FM285 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zR FA U.A.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iplt.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Zaxidov Erkin Agzamovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxmanov Urol Kudratovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Absanov Axmad Abdusattorovich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Shaislamov Ulug'bek Alisherovich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi DSc.02/30.30.12.2019.FM/T.65.01 raqamli Ilmiy kengashning **2025 yil "02" oktabr soat 14:30** dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi 33-uy. Tel./Faks: (+99871) 262-32-54, e-mail: info@iplt.uz. Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 11 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi 33-uy. Tel./Faks: (+99871) 262-31-69.

Dissertatsiya avtoreferati **2025-yil "19" sentabr** kuni tarqatildi.
(2025-yil **"19"** sentabrdagi № 11 raqamli reestr bayonnomasi).



X.B. Ashurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

I.D. Yadgarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f-m.f.d., professor

U.K. Maxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f-m.f.d., professor

KIRISH (Doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda global energiya iste'molining doimiy ravishda oshib borishi arzon, barqaror va qayta tiklanadigan energiya olish texnologiyalarini rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida polimer quyosh element (PQE)larning energiya o'zgartirish samaradorligi (EO'S) qiymati oshishi uchun yangi donor va akseptor polimerlarni sintez qilinmoqda. Fulleren tarkibli akseptorlar uchun yangi donor polimer materiallari sintez qilib olishga harakatlar besamar ketgach, tadqiqot jarayonlari boshqacha yondoshuvga o'tilmoqda, ya'ni yangi donor polimerlar uchun mos bo'lgan fullerensiz akseptor matertiallar sintez qilina boshlandi.

Hozirda dunyoda istiqbolli deb qaralayotgan PQElar faol qatlamida funksional xususiyatlari optimallashtirilgan, yangi sintez qilingan donor/akseptor materiallar qo'llanilmoqda. Fullerensiz akseptorlarni loyihalash va sintez qilish uchun tobora ko'proq sa'y-harakatlar amalga oshirildi va fullerensiz akseptorlarga asoslangan PQElarning EO'S ko'rsatkichi 19 % dan oshib, fulleren tarkibli akseptorlarga asoslangan PQElarning natijalariga nisbatan deyarli 2,5 barobar miqdorda oshishiga erishildi. Ammo, EO'S natijlari yuqori bo'lishiga qaramay hali ham yechilmagan muammolar anchagina bo'lib, bular ultrabinafsha nurlanishi tufayli kelib chiqadigan degradatsiya mavjud bo'lib, Quyosh nurlanishi ta'sirida polimerlar parchalanishi va xususiyatlarini yo'qotishi mumkin. Bu PQElarning ishlash muddatiga salbiy ta'sir qiladi va ularning samaradorligini pasaytiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun yaxshilangan xususiyatlarga ega yangi polimerlarni tadqiq qilish va yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish bilan birga yuqori samaradorlikli yangi tur fotovoltaik texnologiyalarni yaratish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, polimer materiallarning fizikaviy-kimyoviy xossalarini o'rganish, ular asosida yangi tipdagi PQElarni yaratish xamda ularda zaryadlar tashilish jarayonlarini o'rganish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Bunday tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, PQElar faol qatlamida yangi sintez qilingan donor yoki fullerensiz akseptor materiallari qo'llash, ularga termik ishlov berish strukturaning kristallanishini yaxshilaydi va PQE samaradorligini keskin oshirishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni, 2019-yil 21 maydagi O'RQ-539-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish" to'g'risidagi O'zbekiston respublikasining qonuni, 2019-yil 22-avgustdagi PQ – 4422-son "Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlarda ko'zda tutilgan ilmiy texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan. Qarorlaridagi hamda muqobil energetikadan foydalanishga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning: III - “Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va elektron asbobsizligi rivojlanishi” va II - “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” kabi ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. PQElarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish ustida hozirgi kunda dunyo bo‘ylab juda ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Amerikada Florida universiteti, Prinston universiteti, Michigan universiteti, Kembrij universiteti, Shimoliy Korolina universiteti va boshqa ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlari markazlarida PQElar uchun yangi, istiqbolli materiallar yaratish, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha tizimly tadqiqotlar olib borilgan. PQElar sohasida tadqiqotlar qilib salmoqli natijalar olish bo‘yicha Xitoydagi universitetlar va Xitoy Fanlar akademiyasi tarkibidagi ko‘plab tadqiqot institutlari yaqqol peshqadamlik qilmoqda. Masalan, Jiangnan universiteti, Janubiy Xitoy texnologiya universiteti, Pekin universiteti, Markaziy Janubiy universiteti, Wuhan universiteti, Zhejiang universiteti, Tianjin universiteti, Nanjing Tech universiteti, Suzhou universitetlari shular jumlasidandir.

So‘nggi yillarda juda ko‘plab yangi donor va polimer materiallar sintez qilinib qisqa muddatda EO’S qiymatlari 8% dan 19 %gacha erishgan bo‘lsa, hozirgi kunda esa faqat EO’S qiymatini oshirish uchun emas, parallel ravishda tashqi muhit ta’siriga chidamli qilish usullari bo‘yicha ham keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Yangi donor va akseptor polimerlarni sintez qilish va PQElarda qo‘llashda Xitoylik tadqiqotchilar dunyo bo‘yicha asosiy o‘rinda hisoblanadi. Xie va Chjan PBDB-T: IT-M va PBDB-T: ITIC faol qatlamlar asosida PQElarning EO’S natijalarini bir xil qiymatlarda olishgan. Ular yuqori harakatchanlik manbai sifatida donor va fullerensiz akseptor ITICni keng diapazonli spektriga ega ekanligi ko‘rsatishdi va uning yuqori harakatchanligi va past LUMO darajalari PTB7-Th va PBDB-T kabi qisqa to‘lqin diapazonli yutilishga ega donorlar bilan yaxshi moslashishga imkon bergan. Chen va uning hamkasblari konjugatsiyalangan polimerning zanjirlararo agregatsiyasi yuqori harakatchanlik uchun foydali bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi, bu esa qisqa to‘lqin diapazonli yutilishga ega donorlar faol qatlam qalinligi oralig‘ida yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi. Masalan, Markaziy Janubiy universitetida Yingping va uning hamkasblari 2019-yilda mashhur Y1 deb nomlangan fullerensiz akseptorni sintez qilgan bo‘lib, bugungi kunda ular Y1, Y2, Y3, Y4, Y5 va Y6 deb nomlangan Y seriyali fullerensiz akseptorlarni sintez qilish natijasida samarali PQElar olishga erishildi. Yangi donor polimerlar bo‘yicha 2021-yili Liming Ding va uning hamkasblari ajoyib donor polimer D18 ni sintez qilib olishib va shu donor asosida o‘z vaqtida rekord natija EO’S 17,9 % olishgan. Hozirgi kunda D18 donor polimer orqali yangi donor polimerlar sintez qilinmoqda. Jiangnan Universitetida professor Renqinag Yang va Wang Xunchan jamoasi ko‘plab tadqiqotlar olib borishib, D18 asosida juda ko‘plab

¹ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar <https://www.researchgate.net> , www.Elsevier.com , <https://www.wiley.com> , <http://www.nature.com> , <https://pubs.acs.org> va boshqa ilmiy ba’zalardagi manbalar asosida tuzildi.

yangi donor polimerlar va Y seriyali fullerensiz akseptorlar sintez qilib olinib PQElarning EO'S natijasi 19 % dan oshirishga erishdi. Bundan tashqari dunyo bo'ylab juda ko'p tadqiqotchi olimlar fullerensiz akseptorlar asosidagi PQElar sohasida eng yuqori samaradorliklarga erishmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. 1995-yillarda eng birinchi organik/polimer quyosh elementlari haqida maqolalar e'lon qilingandan buyon, PQElar sohasida juda ham ko'p ilmiy tadqiqotlar va natijalar olindi. 2008-yilda McNeill va boshqalar benzotiadiazolga asoslangan fullerensiz akseptor F8TBT ni sintez qilishgan va EO'Si 1,2% bo'lgan P3HT:F8TBT faol qatlamli PQE olishgan. 2009-yilda Yan va boshqalar naftalin diimid (NDI) asosida fullerensiz akseptor N2200ni sintez qilishgan va 300-900 nmni qamrab oluvchi keng yutilish spektri sohasiga ega bo'lgan. 2015-yilda Chjan va uning hamkasblari yangi akseptor polimer material ITIC haqida xabar berdi. ITIC polimerida LUMO energiya darajasi pasaytirildi, o'zgartirilgan strukturasi molekulyar zaryad o'tkazilishini yaxshiladi va yorug'lik yutilish koeffisientini oshirib, yutilish to'lqin sohasi ham kengaydi. 2015-yilda McCulloch va uning hamkasblari FBR deb nomlangan fulleren tarkibsiz akseptorni sintez qildi, bu sintez usuli arzon narxlardagi FBR materiallarni sintez qilish imkonini berishini isbotlab berishidi. 2018-yilda Li va uning hamkasblari PTQ10 deb nomlangan D-A polimer donorini sintez qildi. PTQ10 polimerida tiofen va diftor bilan almashtirilgan kinoksalin mos ravishda donor va akseptor birgalikda birlik sifatida qo'llanildi. Ushbu polimer ishlatiladigan sintez qilish bosqichlari sonini ikkitagacha kamaytirishi mumkinligini ko'rsatib berdi, ammo umumiy rentabellik (sintez qilingan polimerning tannarxi) boshqa polimer donorlariga qaraganda ~5-20 baravar yuqori edi.

1998-yildan 2022-yilgacha fullerensiz polimerlar bilan PQElar EO'S 1,9% dan 19,2% gacha yaxshilanib juda muhim yutuqlarga erishildi. Polimer quyosh elementlari respublikamizda yangi tadqiqot sohasi bo'lishiga qaramasdan O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida professor Zaxidov E.A. va uning jamoasi hamda O'zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi institutidagi professor N.R. Ashurov rahbarligida tadqiqotlar olib borilmoqda va muhim ilmiy natijalarga erishishgan. Xususan ushbu sohada M.X. Imomov va V.O.Quvondiqov tadqiqotlar olib borib polimer quyosh elementlarining spektral xususiyatlarini va strukturaviy degredatsiya jarayonlarini tadqiq qilgan.

Tadqiqot natijalarini umumlishtirib tahlil qiladigan bo'lsak, ko'plab konjugatsiyalangan polimerlarga asoslangan faol qatlam strukturasi haroratga bog'liq ravishda yaxshi kristallanishi aniqlangan, natijada PQElarda tok zichligi qiymatlarining ortishi aniqlangan. Ammo sintez qilingan fullerensiz akseptorlar asosidagi donor-akseptor eritmasiga qo'shimcha kimyoviy suyuqliklar kiritish, donor-akseptor eritmasiga yoki faol qatlamga turli termik qizdirib ishlov berish usullarini qo'llash natijasida faol qatlamning optik xossalari o'zgarishi bilan PQElarning fotovoltaiik parametrlari o'rtasidagi bog'liqliklar qonuniyati hali ham to'liq tahlil qilinib aniq bir qoida asosida tushuntirilishga erishilmagan, hamda hozirgi vaqtda PQElar sohasida juda ko'p tadqiqotlar o'tkazilmoqda va PQElarning ommabop qo'llanilishi uchun aniq bir tizimli yechim yoki protokol mavjud emas. Shu bilan birga yangi sintez qilib olingan fullerensiz akseptor va donordan iborat

faol qatlamlarga turli usullarda ishlov berish orqali faol qatlamlarda yorug'lik yutilishi, zaryadlar ajaralishi va tashilishi jarayonlarini optimallashtirish hamda ushbu jarayonlarning amalga oshirish mexanizmlarini optik va strukturaviy jihatdan to'liq tushuntirib berish PQElarning samaradorligining poydevoridir. PQElarni ommabop qo'llashda juda muhim rol o'ynaydigan kimyoviy tuzilishida yaxshi bog'lanishga va takrorlanishga ega fullerensiz akseptorlarni sintez qilish yoki yangi sintez qilingan donor polimerlar bilan fullerensiz akseptorlar asosidagi faol qatlamlarning optik va strukturaviy tuzilishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash bo'yicha juda ko'p tadqiqotlar o'tkazish PQElarning istiqbolli ravishda keng va hamyonbop qo'llash uchun asos yaratiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari AL-8724053065 "Kam uglerodli aqlli qishloq xo'jaligi uchun yuqori samarali yarim shaffof organik fotovoltai elementlar" 2025 – 2027 yillar uchun mo'ljallangan O'zRFA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilayotgan O'zbekiston–Xitoy qo'shma xalqaro loyihasida, Davlat dasturi bo'yicha O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida olib borilayotgan "PM6 donor va fullerensiz akseptorlar asosidagi organik quyosh elementlari faol qatlamlarning agregatsiyalanish hamda kristallanish xususiyatlarini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental tadqiqot ishlari doirasida amalga oshirildi.

Dissertatsiya ishining maqsadi: Yangi donor va fullerensiz akseptor polimerlarning optik va strukturaviy xossalari, donor va fullerensiz akseptor polimerlar bilan turli sharoitda olingan faol qatlamlarning optik va strukturaviy xususiyatlarini optimallashtirish orqali PQElarning samaradorligini oshirish uchun fizikaviy omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

PQElarning asosiy komponentasi bo'lgan faol qatlam uchun qo'llaniladigan D18 polimerini va D18 strukturasi modifikatsiya qilingan D18-R donorlarning eritma va qatlam holatidagi yutilish va fluoressensiya spektrlarini tadqiq qilish;

D18 donor va sintez qilib olingan yangi D18-R donorlarni L8-Bo fullernsiz akseptor bilan aralashtirilib tayyorlangan eritmaning va faol qatlamlarning xususiy yutilish va fluoressensiya spektrlarini, GIWAXS rentgent analiz tasvirlarini va mikroskoplar orqali olingan tasvirlar yordamida morfologik xususiyatlarini tadqiq qilish;

D18 va D18-R donorlarni L8-Bo fullernsiz akseptor bilan aralashtirilib tayyorlangan eritmalariga qo'shimcha kimyoviy suyuqliklar qo'shib, turli usulda termik ishlovlar berish natijasida faol qatlamlarning yutilish spektrlari, morfologik xususiyatlari va GIWAXS difraksion tasvirlari orqali ularning samaradorligini aniqlash;

D18 va D18-R donorlarni L8-Bo fullernsiz akseptor bilan aralashtirilib tayyorlangan faol qatlam tarkibidagi donor-akseptorlarning massa nisbati bo'yicha ulushlari, donor-akseptor eritmasiga qo'shiladigan kimyoviy suyuqlik turi va miqdori, termik ishlov berish usuli va haroratini PQElarning samaradorligi uchun optimal qiymatlarni aniqlash;

sintez qilib olingan yangi PBB-TSA va PBB-TSD donorlarni, PBB-TSA:IT-4F va PBB-TSD:IT-4F larning eritma holatida va yupqa qatlam holatida yutilish spektrlarini tadqiq qilish. Ushbu faol qatlamlar asosidagi PQElarning fotovoltaik parametrlarini optik va strukturaviy xossalari bilan qiyosiy o'rganish;

hajmiy getreostrukturali PBB-TSD:Y6 faol qatlam va qatlam qatlam strukturali PBB-TSD/Y6 faol qatlamlarning optik xossalari tadqiq qilish va ushbu faol qatlamlar asosidagi PQElarda eksiton dissosiasiyalanish va zaryadlar harakatchanlik xususiyatlarini spektroskopik va fotovoltaik usullarda tadqiq qilish;

fullerensiz akseptorlarda eksiton bog'lanish energiyasini kamaytirish maqsadida Y6 fullerensiz akseptor yordamida sintez qilib olingan yangi fullerensiz akseptorlar asosidagi faol qatlamlarning yutilish va fluoressensiya xossalari tadqiq qilish, turli sharoitdagi faol qatlam yutilish va fluoressensiya xossalari yordamida eksiton bog'lanish energiyasining o'zgarishlarini baholash;

sintez qilib olingan yangi Y6-seriyali fullerensiz akseptorlarning galogen bo'lmagan erituvchi toluolda eruvchanlik daraja miqdorini spektroskopik usulda baholash va ushbu yangi fullerensiz akseptorlar asosidagi PQElarning fotovoltaik parametrlarini hamda termik barqarorlikka ta'sirini aniqlash va qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot ob'ekti: D18 donor va sintez qilib olingan yangi D18-R, PBB-TSA va PBB-TSD donorlar, L8-Bo, IT-4F, Y6 va Y6 fullerensiz akseptor yordamida sintez qilib olingan yangi fullerensiz akseptorlar.

Tadqiqotning predmeti. Yangi donorlar yoki fullerensiz akseptorlar asosidagi faol qatlamga ega PQElarda yorug'lik yutilishi va fluoressensiya xossalari, eksitonlar paydo bo'lishi mexanizmi, eksitonlar ajralishi va zaryadlar tashilish jarayonlari, donor va akseptor eritmalariga qo'shimcha kimyoviy suyuqlik qo'shilgan yoki qo'shilmagan holda eritmaga yoki faol qatlamga turli termik ishlov berish jarayonlari, fullerensiz akseptorlar asosidagi faol qatlamlarning yorug'lik yutilishi va PQElarda yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirish jarayonlari.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya tadqiqot ishlarida spektroskopiya tadqiqotlari, AFM va TEM mikroskoplari, GIWAXS difraktometriya, PQElarnig fotovoltaik parametrlarini o'lchash usullari, donor va akseptorlar aralashmasidan iborat eritmadan "spin coating" usulida qatlamlar olish usuli, kimyoviy suyuqliklarni bug'lari yordamida qizdirish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi natijalardan iborat:

D18 asosida sintez qilib olingan yangi D18-R seriyali donor polimerlarning eritma holatidagi va yupqa qatlam holatidagi tadqiqot namunalarning yutilish spektri orqali, yutilish spektri intensivligi va yutilish to'lqin uzunligi sohasini o'zgartirmasdan strukturasini o'zgartirish mumkinligi ko'rsatildi;

ilk marta yangi D18-R seriyali donor polimerlar bilan fullerensiz akseptor L8-Bo asosida hajmiy geterostrukturali faol qatlamlar olindi. D18-R seriyali yangi donor polimerlar D18 donor polimerga nisbatan optik xossalari va fotovoltaik parametrlari bo'yicha ham samarali ekanligi ko'rsatildi;

ilk bora yangi donor polimerlar va fullerensiz akseptor bilan olingan hajmiy geterostrukturali faol qatlamlar asosida shisha/ITO/PEDOT:PSS/faol qatlam/PDINN/Ag arxitektura iborat PQElar namunalari tayyorlandi.

Shuningdek, ushbu PQElar yuqori fotovoltaiq qiymatlarga erishish uchun donor va akseptor massa ulushlari nisbatini, qo'shimcha erituvchilar turi va miqdori, termik ishlov berish jarayonidagi optimal haroratlar aniqlandi;

gibrid yon zanjir muhandisligi usulida olingan D18-R seriyali donorlarning yutish spektri to'liq uzunligi sohasini va intentsivligi samaradorligini kamaytirmasdan, yutilish koeffitsientini va diapazonini o'zgartirmasdan ochiq zanjir kuchlanishi (Voc) qiymatini pasaytirmasdan yuqori tok kuchi zichligi (J_{sc}) qiymatiga erishish mumkinligi polimerlarning optik va fotovoltaiq natijalari orqali ko'rsatildi;

ilk bora fullerensiz akseptor Y6 asosida yangi turdagi Y-C5Ch va Y-ChC5 fullerensiz akseptorlar asosida PM6:Y6, PM6:Y-C5Ch va PM6:Y-ChC5 faol qatlamlarning zaryad tashiluvchanligi va eksitonlar hosil bo'lishi samaradorliklari fotoluminessensiya xossalari orqali tadqiq qilindi. Yangi fullerensiz akseptorlar asosidagi faol qatlamlar strukturasi optimallashtirish hamda fullerensiz akseptorlarning eksitonlar bog'lanish energiyasini kamaytirish orqali PQElarning samaradorligini va termal barqarorligini yaxshilashga erishildi;

ilk bora yangi fullerensiz Y-ChC5 akseptorning eksiton bog'lanish energiyasini kamayishi natijasida PQElarda yuqori samarali zaryadni ajratish, tashish va yig'ish jarayonlarining samaradorligini oshirish mumkinligi ko'rsatildi va tashqi kvant samaradorligi 95% dan yuqori va eng maksimal 19,1% energiya o'zgartirish samaradorligiga erishildi;

PBB-TSD va Y6 fullersiz akseptorlar asosida qatlam qatlam va hajmiy getereostrukturali faol qatlamlarning optik xossalari hajmiy getereo strukturali faol qatlam bilan solishtirganda, qatlam qatlam strukturaga ega faol qatlamning yutilish spektri biroz qizil siljishga ega ekanligini, bu siljish esa Y6 fullersiz akseptorning yaxshilangan molekulyar tartibini namoyish etishi va o'z navbatida zaryad o'tkazishni yaxshilab, qatlam qatlam strukturali faol qatlamlarda tok kuchining oqimining kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi;

Y6 fullerensiz akseptorni strukturaviy o'zgartirishlar orqali eksiton bog'lanish energiyasini kamaytirish mumkinligi, erituvchilarda eruvchanlik darajasini va optik xususiyatlarini yanada takomillashtirish mumkinligini yutilish va fotoluminessensiya spektr natijalari orqali ko'rsatildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- fullerensiz akseptor L8-Bo polimer va D18-R seriyali yangi donor polimerlar asosida faol qatlamlar turli sharoitlarda olinib, ular asosida shisha/ITO/faol qatlam/PDINO/Ag arxitektura shaklida PQElar tayyorlandi. PQElarning EO'S samaradorligi maksimal 19,2 % foizgacha oshirishga erishildi;

- donor polimerlarning yutilish spektriga ta'sir qilmasdan strukturasi o'zgartirish orqali PQElarning fotovoltaiq parametrlarini optimallashtirish usullari ishlab chiqildi;

- yangi sintez qilib olingan donor va fullerensiz akseptorlar asosida eksitonlar hosil bo'lishi va ajralishi, kristallanish ko'rsatkichlari yaxshilangan faol qatlamlar olish uchun faol qatlamga ishlov berish usullari ishlab chiqildi va shu usullar yordamida faol qatlamlarga ishlov berilib PQElar samaradorligi oshirildi;

- PQElarning optimal fotovoltaik qiymatlarga erishish uchun faol qatlam strukturasini donor va akseptorlar turiga qarab to'g'ri tanlash, faol qatlam uchun tayyorlangan eritmaga qo'shimchalar qo'shishda qo'shimcha turini va miqdorini, termik qizdirish usullarini aniqlash PQElarning EO'S qiymatlarining oshishi uchun muhim faktorlardan ekanligi tadqiqot natijalari yordamida ko'rsatildi;

- hajmiy geterostrukturali va qatlam qatlam usulda tayyorlangan faol qatlamlarda yorug'lik yutilishi, eksitonlar paydo bo'lishi va ajralishi samaradorligi, PQElarning yuqori EO'S qiymati faqatgina hajmiy geterostruktura usulda tayyorlangan faol qatlamlarda emas, aksincha donor va akseptor to'g'ri tanlansa qatlam qatlam usulda tayyorlangan faol qatlamlarning samaradorligi hajmiy geterostruktura usulda tayyorlangan faol qatlamlardan yaxshi bo'lishi ko'rsatildi;

- fullerensiz akseptorlar fullerenli akseptorlarga nisbatan har tomonlama (yutilish spektri intensivligi va keng to'liq uzunligi sohasiga egaligi, donorlarga moslashuvchanligi va boshqa parametrlari bo'yicha) samarali ekanligini D18:L8-Bo va D18:PCBM faol qatlamlarning optik xossalari va ular asosidagi PQElarning fotovoltaik parametrlari bo'yicha eksperimental ko'rsatildi;

- donor va akseptorlarni sintez qilib olish orqali va ular asosidagi faol qatlamlarning agregatsiyasini, kristallanish jarayonini va eksitonlar ajralishini boshqarish mumkinligini faol qatlamlarning yutilish va fluoressensiya spektr natijalari orqali ko'rsatildi;

- yangi sintez qilib olingan fullerensiz akseptorlarning eksiton bog'lanish energiyasining o'zgarganligini va galogen erituvchilarda eruvchanlik darajasini aniqlash uchun yutilish va FL spektrlaridan foydalanib tadqiqot natijalari olish mumkinligi ko'rsatildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Yangi donor va fullerensiz akseptor eritmaları yoki donor-akseptor aralashmasi orqali tayyorlangan eritmalar va yupqa faol qatlam holatdagi tadqiqot namunalari yutilish va fluoressensiya spektrlari spektrofotometrlarda, faol qatlamlarning mikroskopik tasvirlarini olishda AFM va TEM mikroskoplarida, faol qatlamlarning strukturaviy holatini tadqiq qilishda GIWAXS reagent analiz usulida, PQElarning fotovoltaik parametrlarini o'lchashda maxsus standartga ega qurilmalar kabi eng ilg'or tadqiqot qurilmalarni va tadqiqot usullarini qo'llash, hamda yuqori aniqlikdagi zamonaviy o'lchov asboblari qo'llash bilan asoslanadi. PQElarning asosiy komponentasi bo'lgan faol qatlamlarning optik xossalari, strukturaviy parametrlarini va PQElarning samardorligini, barqarorligini o'rganish bo'yicha olingan tadqiqot natijalar va ularni tahlil qilish, o'rganilgan tadqiqot namunalarni nazariy tadqiq etishning asosiy qoidalariga asoslanadi va zamonaviy tadqiqotlar ma'lumotlariga to'liq mos keladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ushbu dissertatsiya tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati yangi sintez qilingan D18-R strukturaga ega donor polimerlar va L8-Bo fullerensiz akseptor asosidagi faol qatlamlar olish usullari, faol qatlamlarga turli usullarda ishlovlar berish natijasida faol qatlamda yorug'lik yutilishi, agregatsiyalanish va eksitonlar dissotsatsiyalanish darajasi va zaryadlar tashilishining samaradorligining o'zgarishlari, faol qatlam strukturalarning tartiblanish/ kristallanish darajasi bilan bog'liqligini o'rganishga asoslanadi. Ikkinchidan fullerensiz akseptorlarning

strukturasini sintez qilish orqali o'zgartirilgan yangi fullerensiz akseptorlarning eksiton bog'lanish energiyasining o'zgarishi, optik xossalari, eksitonlar hosil bo'lishi va ajralishi samaradorliklari ularning yutilish va fluoessentsiya xossalari orqali o'rganishga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, PQElarni ommabop qo'llanishi, sanoat darajasida tayyorlash uchun va yuqori samaradorlik qiymatlariga erishish uchun aniqlangan yangi sintez qilib olingan donor polimerlar va fullerensiz akseptorlarning faol qatlamdagi massa ulushlari nisbati, qo'shimcha kimyoviy suyuqliklar turi va miqdori, faol qatlamni qizdirish usullari va harorati, faol qatlamlarni tayyorlashda aniqlangan optimal qizdirish haroratlaridan kelgusi tadqiqot natijalarini yaxshilash uchun foydalanish mumkin. Shu bilan birga keyingi tadqiqot jarayonlarida PQElarning samaradorligini oshirishda donor va fullerensiz akseptorlarni sintez qilish orqali polimerlarning optik xossalarini pasaytirmagan holda ham PQElarning fotovoltaik parametrlarini oshirishda tavsiya etilgan ilmiy tadqiqot natijalaridan va samarali PQElar tayyorlashdagi tadqiqot usullaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.

Nano energy 101 (2022-yil) jurnalida nashr qilingan "Hammer throw-liked hybrid cyclic and alkyl chains: A new side chain engineering for over 18% efficiency organic solar cells" mavzusidagi maqolamizdagi tadqiqot natijalarimiz nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan ushbu (Energy & Environmental Science, 2024, 17, 1916, Advanced Materials 34(33), 2022, pp. 2204718, Advanced Materials 35(10), 2023, pp. 2210760, IF=25,81; Advanced Functional Materials, 33(28), 2023, pp. 2215204, IF= 18,5; IF=25,81; Energy & Environmental Science 16, 2023, pp. 3416-3429 IF= 32,4;) jurnallarda qo'shimchalarni qo'shish massa ulushlari, moslashuvchanlikning optimal muvozanati bilan tavsiflangan molekulyar struktura hamda uning qo'shimcha sifatida faol qatlam ichidagi eksiton diffuziyasi va dissotsiatsiya xususiyatlariga ta'siri o'rganilgan fizikaviy jarayonlarni tushuntirish imkonini bergan.

Advanced Materials jurnalidagi iqtibosda, donor material uchun D18 va akseptor material uchun L8-BO to'g'ri tanlanganligi va bu qatlamlarning yutilish sohasini, spektr kengligini tushuntirish va izohlash uchun foydalangan.

Keyingi iqtiboslarda shuningdek, donor polimerlari uchun kengaygan taqiqlangan soha energiyalari yoki LUMO energiya darajasining oshishi kuzatilganligi, siklogeksanga asoslangan alkil guruhidan Y6 hosilalari uchun ichki yon zanjir sifatida foydalanish mumkinligi tushuntirilgan.

ACS Applied Materials & Interfaces (2021-yil) jurnalida nashr qilingan "Benzobis(Thiazole)-Based Conjugated Polymer with Varying Alkylthio Side-Chain Positions for Efficient Fullerene-Free Organic Solar Cells" maqolamizda keltirilgan tadqiqot natijalarimiz nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan ushbu (Advanced Materials 36, 3 2024, pp. 2306990, IF=25,81; ACS Applied Materials & Interfaces 15, 24, 2023, pp. 29643–29652, IF= 8,5; Chinese Journal of Polymer Science 40, 2022, pp.147–156, IF= 4,1; International Journal of Quantum Chemistry 124, (1) 2024, pp. e27254, IF= 2,3;) maqolalarda BTZ birikmalari ko'pincha kuchli intermolekulalararo π - π bog'lam o'zaro ta'sirini ko'rsatadi va uzoq masofali

tartiblanganligini, polimer quyosh elementi qurilmalarida nisbatan kam energiya yo‘qotilishi va yuqori samaradorlik bo‘yicha tadqiqot natijalarini olishda va tushuntirishda foydalanilgan.

Keyingi iqtiboslarda polimer quyosh elementlarning (PQE) ishlashi yangi yorug‘lik yig‘uvchi materiallarning so‘nggi rivojlanishi tufayli sezilarli darajada yaxshilanganligini hamda PQElarda n-tipli materiallar sifatida qo‘llaniladigan ITIC va Y6 kabi fulleren bo‘lmagan tuzilmali akseptorlar p-tipli konjugatsiyalangan polimerlar bilan qo‘shimcha yutilishni ta‘minlashi va yorug‘lik energiyasini maksimal darajada elektr energiyasiga aylantirib berishini tushuntirishda qo‘llanilgan.

Keyingi iqtiboslarda p-konjugatsiyalangan polimerlarning bir turi sifatida donor(D)-akseptor(A) polimerlari polimer zanjirlarida ham elektron, ham kovak tashuvchi tuzilmalarga ega ekanligi, bu esa optik-elektron qurilmalarda zaryad tashish samaradorligini samarali oshirishda tadqiqotlarida foydalanilgan.

Aggregate (5) 2024-yil jurnalida nashr qilingan “Steric hindrance induced low exciton binding energy enables low-driving-force organic solar cells” mavzusidagi maqolamizdagi tadqiqot natijalarimiz nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan ushbu (Dyes and Pigments 237 (2025) pp.112713, IF=4,1; Physica B: Condensed Matter, 701 (2025) pp. 416952, IF= 2,8; Polymer Chemistry 2025, 16, pp. 475–483, IF=4,1; Solar RRL 2025, pp. 1-9, IF= 6;) eksitonlarning bog‘lanish energiyasini pasaytirish orqali eksitonlarning erkin zaryad tashuvchilarga termal dissotsiatsiyasini osonlashtiradi, bunda zaryadni ajratish va tashishni ortadi, bu esa o‘z navbatida fotovoltaik qurilmalar va polimer quyosh elementlarida energiya o‘zgartirish samaradorligini oshirishda foydalanilgan.

Keyingi iqtiboslarda g‘alayonlangan eksitonlar akseptorda zaryad tashuvchilarga ajralishi bilan akseptordan D18-Cl donorga kovaklar tez uzatilishi, donor polimerining yutilish sohasi o‘rta diapazonda va fullerensiz akseptorlar qisqa to‘lqin diapazonida yorug‘likning yutilishini sezilarli darajada oshirdi va energiya yo‘qotilishini kamaytirdi, bu esa energiya o‘zgartirish samaradorligini 20% dan oshishiga olib kelishini tushuntirishda foydalangan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy natijalari 20 ta, shu jumladan 11 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida ma’ruza va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining mavzusi bo‘yicha olingan natijalar asosida 38 ta ilmiy ish nashr qilingan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta ilmiy maqola, jumladan, 12 tasi xorijiy nufuzli ilmiy jurnallardagi maqolalar, 6 tasi mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar. Shuningdek, 20 ta ma’ruza materiallari xalqaro va respublika konferensiya to‘plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, hamda 105 ta rasm va 13 ta jadvaldan iborat bo‘lib, dissertatsiya hajmi 220 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqot mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar, dissertatsiya mavzusi bo'yicha mamlakatimizda va xorijda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Polimer quyosh elementlari, polimer quyosh elementlar uchun materiallar va umumiy ma'lumotlar” (adabiyotlar sharhi)** nomli birinchi bobida PQElarida ishlatiladigan materiallar, PQElarining rivojlanish bosqichlari, PQElarining tuzilishi, faol qatlam sifatida ishlatiladigan materiallar, donor va akseptir materiallar turlari haqida, shuningdek, fullerensiz akseptorli polimer quyosh elementlarining optik strukturaviy va fotovoltaik xususiyatlari hamda faol qatlamda fotogeneratsiyalangan zaryadlarning harakatlanish mexanizmlariga oid nazariy va amaliy tadqiqotlar sharhi keltirilgan. Polimer quyosh elementlarining strukturaviy funksional tuzilishi va faol qatlamda polimer donor/fullerensiz akseptorlarni qo'llashning ahamiyati hamda bu sohada erishilgan yutuqlar, yechimini kutayotgan muammolar yoritilgan. PQElarda faol qatlamni tayyorlashda fullerensiz akseptorlarni qo'llash orqali faol qatlam strukturasi yaxshilash bo'yicha ko'plab olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, faol qatlamda yorug'lik fotoni yutilishi natijasida eksiton hosil bolishi hamda eksitonlarning erkin elektron va kovakka ajralishi jarayonlari atroflicha tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida, fullerensiz akseptorlar asosidagi faol qatlamlarni olish va ishlov berish jarayonlari, PQElarni tayyorlash usullari, tadqiqot materiallarini tayyorlash qurilmalari, “Spin coating” qurilmasi, PQElarni tayyorlash jarayonlari, ularning optik, morfologik, strukturaviy va fotovoltaik xususiyatlarini aniqlashning eksperimental metodlari hamda tadqiqot qurilmalari bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan.


Ushbu tadqiqotlarda eritmalardan yupqa qatlamlar olishning “Spin coating” usuli qo'llanildi. “Spin coating” usuli bu ITO shisha yoki boshqa turdagi taglikka yupqa qatlamlarni yotqizish uchun ishlatiladigan usul bo'lib, odatda taglikning markaziga polimer eritmasining kichik tomchisini (20-25 μL miqdorda) joylashtirish va uni yuqori tezlikda aylantirishni o'z ichiga oladi. Polimer qatlamning natijaviy oxirgi qalinligi suyuqlikning va polimer eritmaning xususiyatlari (yopishqoqlik, quritish tezligi, qattiq moddalar foizi, sirt tarangligi va boshqalar)ga va aylanish jarayonining parametrlari (aylanish tezligi va vaqti, bug'lanish tezligi)ga bog'liq. “Spin coating” jarayonining tezligi va tezlashishi qoplangan qatlamning bir xilligi va qalinligiga katta ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga bug'lanish tezligi ham qoplangan faol,qatlam xususiyatlarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, jarayonning bir hil takrorlanishi ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki

“spin coating” usulini qo'llash jarayondagi kichik o'zgarishlar ham qoplangan polimer qatlamda keskin o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, qoplama jarayoniga ta'sir qiluvchi bir qancha asosiy omillar mavjud. Ular orasida aylanish tezligi, tezlashtirish, aylanish vaqti va boshqa turli sabablar bor. Polimer turlari va tagliklar turiga qarab “Spin coating” usulida olingan qatlamlar parametrlari bir biridan juda farq qiladi, shuning uchun sifatli ya'ni optimal qatlamlarni takror olish uchun qat'iy qoidalar yo'q, faqat umumiy ko'rsatmalar mavjuddir. Dissertatsiya ishida tadqiqot namunlarining yutilish spektrlari UV-1280 spektrofotometrda o'lchandi. Tadqiqot namunlarining fluoresensiya (FL) spektrlari esa shimadzu firmasining RF-6000 markali spektrofluoremetr qurilmasi yordamida olindi.

Shuningdek ushbu bobda faol qatlam strukturalarining absorbsion spektrlarini, morfologik tasvirlarini, hamda yupqa qatlamning strukturaviy xususiyatlarini o'rganishda qo'llanilgan metodlar, qurilmalar va o'lchovlarni amalga oshirish jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirildi. Bundan tashqari absorbsion xarakteristikalarini va kristallik ko'rsatkichlarini aniqlash formulalari hamda tahlil qilish metodlari batafsil bayon qilindi. Tayyor quyosh element namunalarining fotovoltaiik parametrlarini va zaryadlar harakatchanlik qiymatlarini aniqlash formulalari hamda eksperimental metodlari keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida istiqbolli PQElarning faol qatlamlarida qo'llash uchun turli sharoitda tayyorlangan D18 asosidagi donorlarning, L8-Bo fullerenisiz akseptorning va ular asosidagi faol qatlamlarning optik xossalari, morfologik va strukturaviy xossalari hamda shu faol qatlam asosidagi PQElarning fotovoltaiik parametrlari, tashqi kvant samaradorligi va barqarorligi kabi xususiyatlari tadqiq qilingan.




1-rasm. D18 va D18 tarkibga ega polimer (a)eritmalarining va (b)qatlamlarining yutilish spektri

D18 donorni modifikatsiya qilib yangi olingan donor polimerlarning strukturasining yutilish xossalari ta'siri birinchi navbatda tadqiq qilindi. 1a va 1b-rasmlarda gibriz zanjirli strukturaga ega barcha donor polimerlar eritma shaklida va qatlam holatida ham kichik batoxromik siljishlar va shunga o'xshash intensivlik cho'qqilariga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu turli donor polimerlarning yutilish spektrlari ularning absorbsiya intensivligi (yutilish darajasi) to'lqin uzunligiga (nm) bog'liq ravishda o'zgarmoqda. Yutilish spektrining shakli D18 va

uning modifikatsiyalangan versiyalari bo'lgan D18-Ch, D18-C6Cp, D18-C6Ch va D18-C6Chp polimerlar juda o'xshash yutilish spektriga ega.

Barcha polimerlar 450–650 nm oralig'ida yuqori yutilish ko'rsatadi, bu esa ularning ushbu to'lqin uzunliklarida samarali yorug'lik yutish xususiyatlarini ko'rsatadi. D18 va boshqa polimerlarning yutilish piki 600 nm atrofida joylashgan. Bu pik polimerlar tomonidan yuqori yorug'lik energiyasini yutishga mos kelishini ko'rsatadi, bu esa PQElarda samaradorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Yutilish spektri grafigidagi kichik farqlarni tahlil qiladigan bo'lsa, D18 va uning modifikatsiyalangan shakllari (masalan, D18-C6Ch, D18-C6Cp) orasida kichik farqlar ko'rinadi, bu ularning kimyoviy tuzilishida kichik o'zgarishlar tufayli yutilish spektrlarida ham unchalik sezilarli darajada o'zgarish bo'lmagan.

1b-rasmdagi faqat siklik zanjirli strukturani o'z ichiga olgan D18-Ch polimer qatlamning yutilish spektrida deyarli hech qanday yelka cho'qqisini ko'rsatmaydi, ammo tarmoqlanib yoyilib ketgan zanjirli strukturaga ega D18 uchun esa huddi eritma holatida o'lchangan yutilish spektridagi kabi sezilarli elka piklari mavjud, buning sababini esa katta siklik zanjirning sterik ta'siri tufayli agregatsiyaning optimal emasligini ko'rsatadi. Gibrid siklik va alkil zanjirlari bo'lgan uchta polimer (ya'ni, D18-C6Cp, D18-C6Ch va D18-C6Chp) o'rtacha elka pik intensivligini ko'rsatmoqda, bu natijalarni D18-Ch bilan solishtirib tahlil qiladigan bo'lsak, bu uchta polimerda ham sterik ta'sir saqlanib qolgan, ammo D18 polimerning yutilish pikiga nisbatan ancha pasayganligini ko'rsatadi.



2-rasm. D18, D18 asosida sintez qilib olingan polimer donorlar asosidagi faol qatlamlarning (a) yutilish va (b) FL spektrlari

2a-rasmdagi grafikda D18 va uning modifikatsiyalangan donor polimerlar bilan fulleren bo'lmagan L8-Bo akseptor aralashmasi asosida olingan faol qatlamlarning yutilish spektrlari berilgan. Eng avvalo, grafikdagi yutilish spektrining shakliga to'xtaladigan bo'lsak, barcha faol qatlamlar uchun 400–900 nm oralig'ida yaxshi yutilish intensivligini ko'rsatmoqda. Har bir faol qatlamning yutilish spektrida to'lqin uzunligi 600 nm atrofida va 800 nm atrofida kuchli yutilish piklari mavjud. Bunday piklarning shakllanishiga sabab, D18 va L8-Bo polimerlarning yutilish spektr grafiga qaralsa o'z o'zidan tushunarli bo'ladi. 3a-rasmdagi grafikning 600 nm atrofidagi yutilish piklari bu D18 polimerga tegishli bo'lsa, 800 nm atrofidagi yutilish piklari esa L8-Bo akseptorga tegishli. Endi D18 donor polimerlarning modifikatsiya qilingan versiyalari orasidagi yutish spektrini tahlil qiladigan

bo'lsak, D18-C6Ch:L8-Bo faol qatlam eng kuchli yutilish ko'rsatkichiga ega bo'lib, ayniqsa, 600 nm va 800 nm atrofida boshqa namunalar bilan solishtirganda biroz balandroq yutilish ko'rsatmoqda. D18-C6Chp:L8-Bo faol qatlamning yutilish intensivligi boshqa faol qatlamlarga nisbatan eng past yutilish ko'rsatkichlarini ko'rsatmoqda, ayniqsa katta to'liq uzunliklari (800–900 nm) sohasida buni yaqqol ko'rish mumkin. Barcha faol qatlamlarning 900 nm dan keyingi to'liq uzunliklarda yutilish intensivligi sezilarli darajada pasayadi. Bu esa ushbu faol qatlamlar asosidagi PQElarning uzoq infraqizil to'liq uzunligi sohasida yorug'likni samarali yuta olmasligi sababli samarali elektr energiya ishlab chiqarolmasligini xulosa qilishimiz mumkin.

